

Fanlar akademiyasi seysmologiya instituti olimlari tomonidan seysmologiya bo'yicha yangi darsliklar rus va o'zbek tilida chop qilindi

SEYSMOLOGIYA (seysmo va logiya) — zilzilalar, ularning sodir bo'lish sabablari va oqibatlarini o'rganadigan geofizika bo'limi. Seysmologiya fizika va geologiya fanlari bilan uzviy bog'liq. Zilzilalarni Yerning geologik tuzilishiga bog'lab o'rganadi. Seysmologiya vazifasi va tadqiqot usullariga ko'ra, xususiy, seysmometriya va amaliy seysmologiyaga bo'linadi. Ko'pchilikning seysmologiya haqida bilganlari shu. Biroq soha olimlari biladiki, uning ham o'ziga xos jihatlari, tarmoqlari bor. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Seysmologiya instituti olimlari tomonidan yangi darsliklar chop etildi. Bu esa sohaga endi kirib kelayotgan yoshlar uchun juda kerakli qo'llanmalar deyish mumkin.



